

3/2023,
may-iyun
(№ 00065)



SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Uktamov Xusniddin Faxriddinovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi. Toshkent, O'zbekiston. husniddin1309@gmail.com

<https://orcid.org/0000-0002-1882-2243>

DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol11_iss3/i28

Annotatsiya

Ushbu maqolada sanoat korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning ilmiy-nazariy asoslari yoritib berilgan. Rivojlanishning hozirgi bosqichida sanoat korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash muhim ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, iqtisodiy xavfsizlikni hisobga olgan holda boshqaruv qarorlarini qabul qilish sxemasi va korxonaning tashkiliy tuzilmasida iqtisodiy xavfsizlik xizmati tashkil qilish mexanizimi ishlab chiqilgan. Raqamli iqtisodiyot rivojlanayotgan sharoitida sanoat korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash yo'llarini joriy qilish bo'yicha o'z yechimini kutayotgan amaliy muammolar va ularning yechimlari ko'rsatilgan. Qolaversa, sanoat korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini taminlash yo'llari yuzasidan xulosa va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: sanoat korxonalari, iqtisodiy xavfsizlik, boshqaruv qarorlari, iqtisodiy xavfsizligini taminlash mexanizimi, ichki tahdidlar, tashqi tahdidlar, barqaror rivojlanish.

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ

Уктамов Хусниддин Фахриддинович

Независимый исследователь Ташкентского государственного экономического университета. Ташкент, Узбекистан.

Аннотация

В данной статье описаны научно-теоретические основы обеспечения экономической безопасности промышленных предприятий. На современном этапе развития выявлена важность обеспечения экономической безопасности промышленных предприятий, а также схема принятия управленческих решений с учетом экономической безопасности и механизм организации службы экономической безопасности в организационной структуре предприятия. был разработан. В условиях развивающейся цифровой экономики показаны ожидающие своего решения практические проблемы и пути их решения по внедрению способов обеспечения экономической безопасности промышленного предприятия. Кроме того, даны выводы и рекомендации по путям обеспечения экономической безопасности промышленных предприятий.

Ключевые слова: промышленные предприятия, экономическая безопасность, управленческие решения, механизм обеспечения экономической безопасности, внутренние угрозы, внешние угрозы, устойчивое развитие.

SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASIS OF ENSURING ECONOMIC SECURITY OF INDUSTRIAL ENTERPRISES

Uktamov Khusniddin Fakhriddinovich

Independent researcher at Tashkent State University of Economics. Tashkent, Uzbekistan.

Abstract

This article describes the scientific and theoretical foundations of ensuring the economic security of industrial enterprises. At the current stage of development, the importance of ensuring the economic security of industrial enterprises has been revealed. Also, a scheme for making management decisions taking into account economic security and a mechanism for organizing an economic security service in the organizational structure of the enterprise has been developed. In the conditions of the developing digital economy, the practical problems awaiting their solution and their solutions regarding the introduction of ways to ensure the economic security of the industrial enterprise are shown. In addition, conclusions and recommendations were given on ways to ensure the economic security of industrial enterprises.

Keywords: industrial enterprises, economic security, management decisions, mechanism of ensuring economic security, internal threats, external threats, sustainable development.

Kirish

Hozirgi jahon iqtisodiyot ilmidagi va mamlakatlar iqtisodiy siyosatida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash muammolariga jiddiy e'tibor berilishi ushbu mavzuning dolzarbligidan darak beradi. Hozirgi dunyoda tartibqoidalar o'zgarib borayotgan sharoitda geosiyosiy ta'sir doiralarini «qayta taqsimlash»ga urinishlar kuzatilmoqda, bu esa xalqaro huquq universal prinsiplarining buzilishiga va jahonda strategik mavhumlikning kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Globallashuvning muqarrarlik xususiyati, uning bir tomondan, davlatlarning barqaror rivojlanishi uchun qulay imkoniyatlar ochib berishi, boshqa tomondan esa, iqtisodiy, oziq-ovqat, energetika, ekologiya, axborot, gumanitar xavfsizlik sohalarida to'g'ridanto'g'ri va potensial xavf tug'dirmoqda. Xavfsizlik bu murakkab va serqirra kategoriyadir. U asosan va ko'pincha ishlab chiqarishda foydalanilayotgan vositalarning xavfsizligi nuqtai nazaridan baholanadi va ko'rib chiqiladi. Shu sababli hozirgacha biz texnika xavfsizligi, piyoda xavfsizligi, oziq-ovqat xavfsizligi yoki zararsizligi kabi tushunchalarni uchratsakda, korxonalar xavfsizligiga hali duch kelganimiz yo'q. Mahsulotlarning zamonaviy namunalari, ishlab chiqarish texnologiyasi, investitsiya rejaları va boshqalar sanoat ayg'oqchiligining diqqat markazida turib, korxonalar va mamlakat uchun ma'lum bir xavf tug'diradi. Shu sababli xavfsizlik va tijorat sirlari muammolari hozirgi bozor va raqobatchilik sharoitlarida iqtisodiyot fanining, jumladan, zamonaviy korxonalar iqtisodiyotining muhim bo'limlaridan biri hisoblanadi. Korxonalar xavfsizligini ta'minlashning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat[1]:

- * korxonalar va uning barcha bo'linmalari, mehnat jamoasining davlat tuzilmasi, xorijiy hamkorlar va raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda qonuniy huquqlarini himoya qilish;
- * korxonalar mulkini saqlash, undan oqilona va unumli foydalanish;
- * ishlab chiqarilayotgan mahsulotning ichki va tashqi bozordagi raqobatbardoshligini oshirish;
- * tashkiliy va ishlab chiqarish barqarorligiga erishish, butlovchi qismlar yetkazib beruvchilarga yordamchi va hamkorlarga bir tomonlama qaram bo'lishga yo'l qo'ymaslik;

* barcha tuzilmaviy bo‘g‘inlardagi xodimlar orasida mehnat intizomini mustahkamlash;

* mehnat unumdorligini oshirish uchun moddiy va ma’naviy manfaatdorligini ta’minlash;

* ishlab chiqarishda fan-texnika yutuqlaridan foydalanish, samarali axborot bazasini rivojlantirish;

* korxonalar obro‘sinini oshirish.

Milliy iqtisodiyotimizni turli tahdidlardan himoya qilish, jamiyat hayot faoliyatining bir qancha sohalarida kechadigan jarayonlarni, shu jumladan korrupsiya va xufiyona iqtisodiyot bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni o‘rganish va ularni oldini olish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish, chora – tadbirlar samaradorligini oshirish orqali iqtisodiy, moliyaviy xavfsizlikni ta’minlash bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy tizimdagi har qanday o‘zgarishlar turli xavf-xatar va tahdidlarning namoyon bo‘lishi bilan birga kechadi[2]. Dunyodagi bunday o‘zgarishlar xavfsizlik, umumiy va milliy xavfsizlik muammolariga bo‘lgan e’tiborni yanada kuchaytirdi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Iqtisodchi olimlar yo‘qotishlarni minimallashtirish, mulk ustidan nazoratni ta’minlash, axborot va huquqiy xavfsizlikni ta’minlash, va korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash masalalarini ko‘rib chiqdilar. Rossiyalik olimlardan V.K.Senchagovning, nuqtai nazaridan, korxonaning iqtisodiy xavfsizligi bu-omillar kombinatsiyasini o‘z ichiga oladigan, faqat ichki holatga bog‘liq bo‘lmagan, korxonaning tashqi atrofmuhit ta’siri va korxonaning iqtisodiy tahdidlarga ko‘radigan choratadbirlari majmui deb ta’rif beradi [3].

A.G. Porshnev, Z.P. Rummyantseva va N.A. Salomatinning ta’kidlashicha, iqtisodiy xavfsizlik tashqi muhitdagi o‘zgarishlarga o‘z vaqtida javob berishdan iborat bo‘lib, bu korxonalar mavjud sharoitlarga moslashishini ta’minlaydi deb takidlaydi [4]. L.P. Goncharenko fikriga ko‘ra, korxonaning iqtisodiy xavfsizligi bu-tahdidlarning oldini olish va korxonaning barqaror ishlashini ta’minlash uchun resurslardan samarali foydalanish holati sifatida talqin yetiladi. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi sifat va miqdoriy ko‘rsatkichlarning kombinatsiyasi bilan tavsiflanadi [5].

A. H Glyumov va Ye.P.Kiselitsy ta’kidlashicha, korxonaning iqtisodiy xavfsizligi bu- sifat va miqdoriy iqtisodiy xavfsizlik darajasi ko‘rsatkichlarning yig‘indisi bilan tavsiflanadi, ularning asosiysi iqtisodiy xavfsizlik mezonlari bo‘yicha korxonalar resurslaridan foydalanish holatini baholash orqali aniqlanadi deb ta’rif berdi [6]. Biroq ularda sanoat korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash yo‘llari masalasi keng tadqiq qilinmagan. A. Isaxodjaev va A. Rasulevlarning fikricha, iqtisodiy xavfsizlik bu faqat milliy manfaatlarni himoya qilishdan iborat bo‘lmay, davlat hokimiyati institutlari, ijtimoiy assotsiatsiyalar, xususiy sektorning mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishining milliy manfaatlarini amalga oshirish va himoya qilish mexanizmini yaratish, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy barqarorligini ta’minlashga tayyorligi va qobiliyatidir[7,8].

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot davomida sanoat korxonalarining iqtisodiy xavfsizlinin taminlash maqsadida ilmiy-tadqiqot faoliyati olib borishning mushohada, induksiya va deduksiya, dinamik qatorlar, analiz va sintez, monografik tadqiq etish, tizimli tahlil, taqqoslash va boshqa usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Hozirgi vaqtda jahonning yetakchi davlatlari taraqqiyoti uchun sanoat rivojlanishidan keyingi bosqich xos bo'lib, bu bosqichda iqtisodiy o'sish omillarining ro'li va o'rnini o'zgarimoqda. Mamlakatimizda sanoat tarmog'ining jadal rivojlanishi natijasida yalpi ichki mahsulot (YaIM) tarkibida sanoatning ulushi 2020 yilning 9 oyida 28,5 foizni tashkil etdi, bu 2019 yilning shu davriga (29,3 foiz) nisbatan solishtirganda 2,7 bandga qisqargan. Bunday salbiy holat Covid-19 ning umumiy iqtisodiyotga yetkazgan ta'siri hisoblanadi. Ushbu holatda korxonalar, shu qatorda kimyo sanoati korxonalari iqtisodiy barqarorligini ta'minlash dolzarb muammo bo'lib qoladi[9]. Sanoatlashgan ishlab chiqarishni rivojlanishi mamlakatlarning YaIM tarkibining ham o'zgarishiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Ayni vaqtda, muayyan davlatni sanoatlashgan deb e'tirof etishda ishlab chiqarilayotgan YaIM tarkibida sanoatning salmog'i boshqa tarmoqlar rivojlanishiga nisbatan yuqori o'sish dinamikasiga ega bo'lishligi asosiy mezon sifatida olinadi. Tadqiqotimiz davomida yechimning samaradorligini tekshirish uchun uchta usuldan foydalanish mumkin.

Birinchi usul kutilgan va haqiqiy daromadni taqqoslash va ular orasidagi farq maqbul chegaralarda yoki yo'qligini aniqlashdan iborat. Ushbu taqqoslashning chastotasi to'g'ridan-to'g'ri korxonalar rahbariyati tomonidan belgilanadi.

Qarorning bajarilishini tekshirishning ikkinchi usuli tasodifiy tanlangan vaqt va joyda tegishli qaror amalga oshirilayotganligini va u o'zini oqlashini to'g'ridan-to'g'ri ko'rish uchun tekshirishni o'z ichiga oladi. Og'ishlar muammolarning ahamiyatini oshiradi va yechimlarni ishlab chiqish tizimidagi "kirishlar" dir.


Uchinchi usul barcha bo'linmalarning bir-biri bilan bog'liqligiga asoslanadi. Bir bo'linma boshqa bo'linmaning ishida kamchiliklar va xatolar mavjudligini e'lon qilishi mumkin, bu esa istalmagan natijalarga olib keladi. Bu, shuningdek, hal qilinishi kerak bo'lgan muammoga aylanadi. Umuman olganda, ushbu bosqich harakatlar natijasi va ushbu harakatlar amalga oshiriladigan maqsad o'rtasidagi teskari aloqani anglatadi. Boshqaruv qarorini qabul qilishning yuqoridagi barcha bosqichlarini yagona jarayonga birlashtirish quyidagi shaklda taqdim etilishi mumkin (1-rasm).

Korxonada boshqaruv qarorlarini qabul qilish tizimining taklif etilayotgan modeli qat'iy emas va iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishning o'ziga xos shartlari asosida o'zgartirilishi mumkin.

Taxminiy va noaniq, ammo shu bilan birga oddiy echimlarga bo'lgan ehtiyoj ba'zi muammoli vaziyatlarda, qaror qabul qilishning asosiy mezonini uni ishlab chiqish vaqti yoki resurs cheklovlari mavjud bo'lganda paydo bo'lishi mumkin. Bunday qarorlarning noaniqligiga qaramay, ular ko'p hollarda maqbul echimlarga yaqin. Bizning fikrimizcha, menejmentning vazifasi muammoni hal qilishning aynan shunday usullarini izlashdir.

Muammoni hal qilish va allaqachon qabul qilingan qarorni amalga oshirish usullarini tanlash masalasi to'g'ridan-to'g'ri korxonaning asosiy vakolatlarini ta'minlash va saqlash bilan bog'liq. Uzoq muddatli istiqbolda korxonaning bozordagi barqaror holati nafaqat korxonaning mulkiy holati, balki uni tashkil etish va boshqarish samaradorligi bilan ham tasdiqlanadi.

Iqtisodiy xavfsizlik resursi korxonaning asosiy vakolatlarini saqlash va ta'minlashda muhim rol o'ynaydi va o'zini mulk shaklida ham, barqaror iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan boshqaruv qarorlari shaklida ham namoyon qiladi. Shu sababli, korxonaning asosiy vakolatlarini saqlab qolish masalasi ushbu korxonalar tomonidan bepul yoki arzonroq iqtisodiy xavfsizlik manbasini sotib olish orqali hal qilinishi mumkin[10].



1-rasm. Iqtisodiy xavfsizlikni hisobga olgan holda boshqaruv qarorlarini qabul qilish sxemasi

Manba: Muallif ishlanmasi.


Korxonalar rahbariyatining xarajatlarni, shu jumladan xavfsizlikni minimallashtirish hisobiga rentabellikni oshirish istagi (shu bilan birga erishilgan xavfsizlik darajasini saqlab qolish istagi) korxonaning tashqi muhitga moslashishini oshirish zarurligiga olib keladi. Shunday qilib, korxonalar uchun, shu jumladan uning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash sohasidagi strategik ahamiyatga ega bo'lgan boshqaruv qarorlari tizimning (korxonaning) transformatsion jarayoni samaradorligini oshirishga qaratilgan. Bunday qarorlarning natijasi korxonaning o'zgartirilgan tashkiliy tuzilishi, biznes-jarayonlarni qayta qurish, diskarga qarshi boshqaruvga o'tish bo'lishi mumkin.

Korxonaning boshqaruvi va tashkiliy tuzilmasidagi o'zgarishlar muqarrar ravishda korxonaning xavfsizlik tizimiga ta'sir qiladi, bu oxir-oqibat iqtisodiy xavfsizlik bo'linmasining tuzilishiga ta'sir qiladi.

Iqtisodiy strategiyaning bosh maqsadi iqtisodiyotning boshqa tarkibi hamda innovatsiyalardan keng foydalanish asosida iqtisodiyotni yuksak sur'atlarda o'stirishdan iborat. Bunga esa iste'mol va innovatsion talabni qamrab oladigan samarali umumiy talab asosida erishish mumkin, zero to'lov qobiliyatining pastligi ishlab chiqarishning ko'plab turlari yo'qolishiga olib keladi. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash – davlatga, uning qonunchilik, ijroiya va sud hokimiyati tarmoqlarigagina taalluqli bo'lgan vazifadir. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq butun milliy xavfsizlik tizimi ustida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan boshqariladigan hamda ushbu tizimga kiruvchi barcha organlar va institutlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Xavfsizlik kengashi turadi. Ehtiyoj kishilar hayotini saqlash, inson organizmi va shaxsni rivojlantirish uchun uning zaruriy ne'matlarga va narsalarga bo'lgan obyektiv zarurati hisoblanadi. Inson o'z ehtiyojlarini qondirish zarurligini anglaganida manfaat yuzaga keladi[11].

Iqtisodiy xavfsizlik bo'linmasining tashkiliy tuzilmasini qurishda uning faoliyati boshqa bo'linmalar faoliyatiga nisbatan yashirin xarakterga ega ekanligidan kelib chiqish kerak. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda eng katta e'tibor korxonaning moliyaviy holatiga qaratiladi, bu esa ushbu bo'linmaning iqtisodiy bo'lim va buxgalteriya bilan o'zaro ta'siriga olib keladi. Shuningdek, iqtisodiy xavfsizlik bo'limi murakkab xususiyatlarga ega bo'lgan korxonalar va uning xodimlarining asosiy aktivlarini himoya qilish bo'yicha ko'plab muammolarni hal qilishni o'z ichiga oladi. Shuning uchun iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmi tabiatda integratsion bo'lishi kerak va iqtisodiy xavfsizlik bo'limi korxonaning turli bo'limlari xodimlaridan tashkil topgan mutaxassislar guruhidir. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi tizimini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan korxonaning tashkiliy tuzilishining variantlaridan biri quyidagicha ifodalanishi mumkin (2-rasm). Iqtisodiy xavfsizlik bo'limi korxonalar rahbariyati bilan bevosita bog'liq bo'lib, unga maqsadni belgilash yoki sozlash va maqsadni amalga oshirish yo'lida yuzaga keladigan muammolarni hal qilish uchun barcha kerakli ma'lumotlarni taqdim etadi. Bunday holda, bo'linmaning o'zi tizim sifatida korxonalar tarkibidagi quyi tizim sifatida taqdim etilishi mumkin. Xodimlarni zamonaviy innovatsion ekotizimga birlashtirish tamoyillari quyidagilar bo'lishi kerak:

- o'z-o'zini tashkil etish va o'zini o'zi boshqarish;
- xodimlar o'rtasida bilim almashish orqali dinamiklik, moslashuvchanlik va ochiqlikka asoslangan tizimni o'z-o'zini rivojlantirish;
- tarmoqlashtirish va tizimning tashkiliy dizaynini loyihalashtirish;
- fanlararo va tarmoqlararo texnologiyalar nuqtai nazaridan xodimlarning xilma-xilligi;
- turli hududlarning infratuzilma ob'ektlari va resurs bazasini birgalikda iste'mol qilish;
- tizim ishtirokchilari o'rtasidagi sheriklik va ishonchga asoslangan hamkorlik;
- mahsulotlarni bir loyihadan ikkinchisiga qayta tiklash orqali rivojlantrish.



2-rasm. Korxonaning tashkiliy tuzilmasida iqtisodiy xavfsizlik xizmatini tashkil qilish

Manba: Muallif ishlanmasi.

Yirik sanoat korxonalari, texnoparklar, muhandislik tuzilmalari, startaplar, venchur fondlar va moliya institutlari, universitetlar va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari, turli biznes tuzilmalari va davlat hokimiyati organlari sanoat ekotizimining ishtirokchilariga aylanishi mumkin.

Xulosa va takliflar

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash bo'yicha kontseptual yo'nalishlar iqtisodiy adabiyotlarda deyarli yoritilmaganligini inobatga olib, ishda quyidagilarni tavsiya qildik:

- korxonada hududini qo'riqlash tizimini mukammallashtirish va ularni zamonaviy texnik vositalar bilan ta'minlash;

- korxonada mulkini (asosiy vositalar, tovar zaxiralari, xom ashyo va materiallar, yarim fabrikatlar, tayyor mahsulotlar kabilar) asrash tizimini yaratish va uni muttasil takomillashtirib borish;
- korxonalar mulkini tashish jarayonida xavfsizlikni ta’minlash masalasini zamonaviy talablardan kelib chiqqan holda takomillashtirish;
- korxonalar mulkini axborot va ilmiy-texnik xavfsizligini ta’minlashni takomillashtirish;
- korxonalar rahbariyati va mulk egalari xavfsizligini ta’minlash bilan bog’liq tadbirlarni ishlab chiqish va takomillashtirish;
- korxonada sodir bo’ladigan o’g’rilik va qo’poruvchilik bilan bog’liq hodisalarning huquqni muhofaza qiluvchi organlarga tezlik bilan yetkazish tizimini takomillashtirish;
- korxonaga kirish-chiqishning optimal rejimini joriy qilish;
- raqobat kurashi bilan bog’liq xavfsizlikni ta’minlashni takomillashtirish;
- korxonaning iqtisodiy xavfsizligini baholash va tahlil qilish tizimini va uslubiyotini ishlab chiqish va ularning tezkorligini ta’minlashni takomillashtirish kabilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Uktamov H.F. Problems of Evaluation and Procuring Economic Security At Enterprises. Asian Journal of Technology & Management Research. Vol.10 – Issue: 01 [Jun-2020]. 123-129. <http://globalimpactfactor.com/asian-journal-of-technologymanagement-research>.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevralda qabul qilingan PF-4947-sonli “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi farmoni. O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2017 y., 6-son, 70-modda
3. Уктамов Х.Ф. Механизмы экономической безопасности предприятий. Economic sciences / «Colloquiumjournal»#24(76),2020. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2021 yil 1/2021 (№ 00051) <http://iqtisodiyot.tsue.uz> 191
4. Экономическая безопасность России: Общий курс: Учебник / Под ред. В. К. Сенчагова. - М.: Дело, 2005. -896 с.
5. Гапоненко В.Ф. Экономическая безопасность предприятий. Подходы и принципы / В.Ф. Гапоненко, Л.А. Беспалько, Л.С. Власков. - М.: Ось - 89, 2007. - 208 с.
6. Гончаренко Л.П. Процесс обеспечения экономической безопасности предприятия / Л.П. Гончаренко //Справочник экономиста. - 2001. - №12. -С. 3 1-36.
7. Глумов А.Н. Формирование экономической безопасности предприятия / А.П. Глумов, Е.П. Киселица // Академический вестник. - 2013. - № - С. 815 с.
8. Уктамов Х.Ф. Саноат корхоналарининг иқтисодий хавфсизлигини таъминлаш йўллари. Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations. <https://inscience.uz/index.php/socinov/article/view/77/63>
9. stat.uz. Ўзбекистон республикаси статистика қўмитаси маълумотлари.
10. Бурханов А.У. (2009) Саноат корхоналарининг молиявий барқарорлигини таъминлаш стратегияси. -Т.: Фан. 2009. – 216 б. / Burhanov A.U. (2009) Strategies for ensuring the financial stability of industrial enterprises. -T.: Fan. 2009. - 216 p.
11. Ўлмасов А., Вахобов А. (2014) Иқтисодий назарияси. Дарслик. -Т.: Iqtisod-moliya. / Ulmasov A., Vakhobov A. (2014) Economic Theory. Textbook. -T.: Economics.